

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'ZR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinova, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'ZR Tabiat resurslari vazirligi,
O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli
qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari	6
Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi	11
Karimova Nilufar , tayanch doktorant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan	16
Peng Xinge , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari	21
Xotamov Ibodulla Sadullayevich , i.f.n., professor, Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari	28
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari	31
Azlarova Munira Muhammad Amin qizi , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective	40
Kuzikulova Dilfuza	
Qualitative functional development in industrial production	49
Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati	54
Xamrayev Djamshid Panjiyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes	61
Eshbayev Oybek , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy	68
Rozikov Ravshan , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy	76
Kurbanova Nigina , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road	85
Kalonov Mukhiddin Bahritdinovich , professor	
Shao Junling , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration	90
Zhao shenghan	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati	96
Abduraximova Dilora Karimovna , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari	101
Xasanxonova Nodira Isametdinovna , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish	107
Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich , kafedra assistenti	
Innovatsion faoliyatning asosi – intellektual salohiyat	112
Kaxorova Anora Nusratovna , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari	118
Qahramon Usmanovich Umidullayev , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari	124
Xamrayev Djamshid Panjiyevich , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish	129
Tulayev Mirzakul Salamovich , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari	133
Sh. B. Babayev , dotsent; M. R. Qulmetov , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari	138
G'aniyev Shahriddin Vohidovich , professor, i. f. d. (DsC), Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики	144
Жиянова Наргиза Эсанбоена , к.э.н., проф., Азимжонова Малика Шавкат қизи , специалист первой категории	
To'qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi	150
Yaxyayeva Inobat Karimovna , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli	
“История экономических учений” как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов	160
Хакимов Назар Хакимович , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership	166
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
Xasanova Zarina , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o'rtasidagi o'zaro ta'sir tahlili.....	178
M. O. Hamroqulov , katta o'qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
Farhod Bagibekovich Xalimbetov	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region)	188
Saidov Nurali Rakhimovich	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region.....	193
S. M. Rakhimova	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	197
Джурабаев Отабек Джурабаевич , доцент	
Soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari	204
Hakimov Feruz Xurshid o'g'li , talaba	
Hayot sug'urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagi o'rni	207
Baratova Dinora Alisherovna , katta o'qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari	213
Qulmatova S. , PhD, katta o'qituvchi; Karimov Botir , katta o'qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati	218
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , PhD, dotsent	
Xususiylashtirishning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlarini.....	223
Odilova Sitora Sayfitdin qizi , katta o'qituvchi	
Tomorqa xo'jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko'rsatkichlari	228
Saydullayeva Fotima Jozilovna , assistant	
O'zbekiston sug'urta bozori rivojlanishining o'ziga xos xususiyati.....	235
Xasanov Xayrulla Nasrullayevich	
O'zbekiston yoshlarida volontyorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba	241
Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich , siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе	247
Оспан Айзада Бейсенқызы , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
Mirzoyev Feruz Mamurjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari.....	259
Abdualim Abdujabbor o'g'li Abdurazzoqov , mustaqil tadqiqotchi	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country's economic growth	267
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
Bank daromadlilik ko'rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta'siri.....	274
Madraimov Xabibulla Madaminovich , assistant o'qituvchi	



Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari	282
Mamatov Mamajan Axmadjonovich , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash	288
Ergashova Nargiza Boboxonovna , talaba	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari	296
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari	301
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining ahamiyati	306
Babadjanova Malika Ruzimovna , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli	312
Kamilov Baxramjon Umardjonovich	
Shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim	317
Bekdavlat Aliyev , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari	321
O. T. Nurmatov , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari	327
Abdullayev Suyun Artiqovich , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	335
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari	346
Saidaxmedova Aida Mirzayevna , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish	352
D. A. Azlarova , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development: Balancing Environment and Business Needs	360
Kholikova Rukhsora Sanjarovna , PhD, Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari	364
Zuhra Abdikarimova , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfelni shakllantirish	370
Sindarov Fazliddin Qahramonovich , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari	376
To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari	381
B. K. Tuxliyev , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida	386
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida)	391
Aminboy Sa'dullayev , i.f.n, dotsent, Dilshod Vaisov , magistr, Farhod Egamberganov , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish	397
Pardayev Jamshid Muzaffarovich , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari	403
Muxitdinova Kamola Alisherovna , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction	407
Gafurov Olimjon , teacher, Kholmuminov Humoyun , teacher, Abrueva Sevinch , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики	411
Ф. Т. Абдувахидов , доцент, А. Ю. Нурмухаммедов , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri	417
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan	420
Mirzamaxmudov Marufjan Mahamadsharif ugli	



TEMIR YO'L TRANSPORTINI MAHALLIYLASHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMNING HOZIRGI HOLATI

Xamrayev Djamshid Panjiyevich

TDIU mustaqil tadqiqotchisi, "Toshkent metropoliteni" DUK "Iqtisod, moliya va mehnatni tashkil qilish" xizmat boshlig'i o'rinbosari

Annotatsiya: Temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini tokomillashtirish bo'yicha o'zbek va xorij olimlari o'rganishlar olib bormoqda. Ushbu maqolada mamlakatimizda temir yo'l transportida mahalliyashtirishning moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qildik.

Temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha Toshkent metropoliteni faoliyati tahlili va mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish masalasi bo'yicha xulosa, taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: Temir yo'l transporti, mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, mahalliyashtirish dasturi, import o'rnini bosish siyosati, mahalliy xom ashyo, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash.

Аннотация: Узбекские и зарубежные ученые проводят исследования по совершенствованию механизма финансирования локализации на железнодорожном транспорте. В данной статье мы проанализировали информацию по совершенствованию механизма финансирования локализации на железнодорожном транспорте в нашей стране.

Нами разработаны заключение, предложение и практические рекомендации по вопросу анализа деятельности Ташкентской агломерации по совершенствованию механизма финансирования локализации на железнодорожном транспорте и совершенствованию механизма финансирования локализации.

Abstract: Uzbek and foreign scientists are conducting studies on improving the financing mechanism of localization in railway transport. In this article, we have analyzed information on improving the mechanism of financing localization in railway transport in our country.

We have developed a conclusion, proposal and practical recommendations on the issue of the analysis of the operation of the Tashkent metropolitan area on the improvement of the financing mechanism of localization in railway transport and the improvement of the mechanism of localization financing.

Key words: Railway transport, localization financing mechanism, localization program, import substitution policy, local raw materials, support for local producers.

KIRISH

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda, keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi¹.

Davlat rahbarining g'oyasi va tashabbusi bilan joriy etilgan, Harakatlar strategiyasi va Taraqqiyot strategiyalari Temir yo'l transport tizimi (keyingi o'rinda Toshkent metropoliteni deb yuritiladi) rivojlanishida o'zining ijobiy ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda Toshkent metropoliteni infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida qo'shimcha yer osti va yer usti metro yo'nalishlari hamda metropoliten bekatlari barpo etib kelinmoqda. Metropoliten harakat tarkibini yangilash maqsadida to'qqizta yangi to'rt vagonli metro poezdlari xarid qilindi hamda 23 ta to'rt vagondan iborat metro poezdlari kapital ta'mirlandi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"-gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot ishi mamlakatimizda temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan. mamlakatimizda Temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishni rivojlantirish, uni davlat tomonidan tartibga solish va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi hamda temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishni rivojlantirishning nazariy jihatdan xorijlik olimlardan X. Cheneri, M. Bruno, A. Straug, N. Karterlar va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha tahlil qilingan.

Mamlakatimizda ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni nazariy-amaliy izlanishlar asosida izchil o'rganilmoqda. Jumladan, ushbu muammolar O'zbekiston olimlari I. X. Boboyev, M. R. Boltabayev, Sh. I. Mustafakulov, G. N. Matchina, T. I. Iskandarov, N. Q. Boboxo'jayev, O. A. Sultonxo'jayev, R. Sayfulina, S. M. Mansurov, T. T. Topvoldiyev, R. R. Raxmanov, D. A. Mirxanova va boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Umumlashgan iqtisodiy tahliliy metodika statistik-analitik tizimli tahlil qilish, sistemali qiyosiy taqoslama tahlil, iqtisodiy matematik modellash, guruhlash va ekspert baholash, iqtisodiy bashorat uslublari qo'llanildi.

MUHOKAMA

So'nggi yillarda Toshkent metropoliteni infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida qo'shimcha yer osti va yer usti metro yo'nalishlari hamda metropoliten bekatlari barpo etib kelinmoqda. Metropoliten harakat tarkibini yangilash maqsadida o'nbeshta yangi to'rt vagonli metro poezdlari xarid qilindi hamda 24 ta to'rt vagondan iborat metro poezdlari kapital ta'mirlandi. Yunusobod yo'nalishida uzunligi 2,9 km bo'lgan yer osti metropoliten liniyasi hamda "Yunusobod" va "Turkiston" bekatlari barpo etildi, yer usti halqa metropoliten liniyasining I bosqich – 11,7 km uzunlikdagi 7 ta bekatdan iborat bo'lgan qismi hamda 6,2 km uzunlikdagi Sergeli yer usti metropoliten liniyasining 5 ta bekati foydalanishga topshirildi.

2016–2021-yillarda amalga oshirilgan ishlar natijasida metropoliten liniyasining umumiy uzunligi 38 km dan 59 km ga, bekatlar soni 29 tadan 43 taga yetkazildi, Toshkent metropolitenida yo'lovchilar tashish quvvati 2016-yilga nisbatan 2 barobarga oshib, kunlik yo'lovchi tashish 160 ming yo'lovchidan 360 ming yo'lovchiga yetkazildi. Toshkent shahrida yer usti halqa metropoliten liniyasining II bosqich – 13 km uzunlikdagi 7 ta bekatdan iborat "Qo'yliq–Qipchoq" uchastkasida qurilish ishlari amalga oshirilmoqda.

Toshkent metropoliteni quyidagi tartibda moliyalashtirish mexanizmini amalga oshiradi:

- Toshkent metropolitenida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatishdan tushadigan daromadlar hisobidan o'zini o'zi moliyalashtiradi.
- Cheklangan tariflar bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishi munosabati bilan ko'radigan zararlarni mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish.
- O'zbekiston Respublikasi Prezideti, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmonlari asosida Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha Respublika byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish.

Toshkent shahar transportini rivojlantirish Konsepsiyasi yo'lovchi tashish transporti tizimining tezkor rivojlantirish, ularning barcha turlarini muqobillashtirish va kelajakda shahar ko'chalarining rivojlanishini o'z ichiga oladi. Toshkent metropoliteni hozirgi vaqtga qadar jamoat transportining eng katta talabga ega bo'lgan, ekologik toza, qulay va arzon transport turi hisoblanib, 2021-yilda umumiy shahar yo'lovchilarni tashishdagi salmog'i 48 foizni tashkil etgan.


NATIJALAR

Toshkent metropolitenining asosiy faoliyati Toshkent shahar aholisi, mamlakatimiz va boshqa davlatlardan kelgan mehmonlariga xavfsiz va qulay xizmat ko'rsatishga qaratilgan. Yo'lovchilariga xizmat ko'rsatuvchi shaharning, Respublikaning yetakchi jamoat transporti hisoblanadi. "Toshkent metropoliteni" davlat unitar korxonasi yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlarining 2016–2021-yillardagi tahlili metropolitenidan foydalanuvchi yo'lovchilarning soni yildan yilga ortishi, yangi bekatlar ochilishi, metropoliten parkida harakat tarkiblari va yangi xarid qilingan harakat tarkibi sonlarining ortishi, yangi ish o'rinlari tashkil qilinishi va daromad miqdorining barqaror o'sish sur'atiga ega ekanligidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval: "Toshkent metropoliteni" DUK faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi²

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
1	Yo'lovchilar hajmi	mln. kishi	53,49	59,70	68,64	79,23	38,81	101,77
2	Daromad	mlrd. so'm	60,89	78,30	85,06	115,55	57,17	157,54
3	Bekatlarni soni	dona	29	29	29	29	38	43
4	Umumiy uzunlik	kg	38,25	38,25	38,25	38,25	59,05	59,05
5	Harakat tarkiblari soni	dona	49	49	49	54	54	64
6	Ishchilar soni	dona	2987	3037	3253	3944	4279	5293

Toshkent metropoliteni moliyai ko'rsatkichlarining 2016–2021-yillardagi tahlili shuni ko'rsatadiki, harakat xavfsizligi bo'yicha ko'rilgan choralarning ijobiy natijasi daromadlarning barqaror o'sishiga olib kelgan. Xususan, metropolitenning 2016-yilda 53,49 million yo'lovchilarga xizmat ko'rsatilib, 60,89 mlrd.so'm daromad olingan bo'lsa, 2021-yilda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish 1,9 martaga oshib, 101,77 million yo'lovchilarga va daromad miqdori 2,6 barobarga oshib, 157,54 mlrd.so'mga teng bo'lgan (1-rasm).

1-rasm: "Toshkent metropoliteni" DUK yo'lovchilar oqimi va daromadning o'sishi³

Toshkent metropolitenida yo'lovchilar oqimi va daromadlarning o'sishi, korxonada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, harakat tarkiblarni modernizatsiya qilish, texnik yangilash jarayonlarini jadallashtirishga qaratilganligi nafaqat korxona rivojlanishi, shu bilan birga shahar infratuzilmasini rivojlanish uchun ham juda muhim hisoblanadi.

E'tirof etish joizki, jahon iqtisodiyotining hozirgi globallashuv sharoitida yanada yukori marralarga erishish uchun korxona moliyalashtirish strategiyasini bo'yicha qarorlari qabul qilish imkoniyatini yaratadigan boshqaruv hisobi samaradorligini oshirish hamda moliyalashtirish strategiyasini yanada rivojlantirish dolzarb masaladir.

Xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar, o'zining investitsiyalari va xorijiy investitsiyalar, byudjetdan ajratiladigan mablag'lar, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar shahar yo'lovchilar tashuvchilari faoliyatini moliyalashtirishning manbalari hisoblanadi.

Shahar yo'lovchilar transporti tashuvchilarining yo'l qo'yiladigan doiradagi tariflar bo'yicha yo'lovchilar va bagaj tashish xizmatlari ko'rsatish munosabati bilan ko'rgan zarari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tegishli mahalliy byudjet hisobidan qoplanadi⁴.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy foydalaniladigan transportda yo'lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2012-yil 17-sentyabrdagi 273-sonli qaroriga asosan:

² "Toshkent metropoliteni" DUK faoliyatining 2016–2021-yilgi statistika hisobot ma'lumotlari.

³ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.

⁴ O'zbekiston Respublikasi "Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida" 1997-yil 25-apreldagi 419-I-sonli qonunning 15-moddasi.



Fuqarolarning ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog'liq holda tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini subsidiyalar berish orqali qoplash;

Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo'lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishda olinmay qoladigan daromatlarni qoplash⁵;


Cheklangan tariflar bo'yicha yo'lovchilar va bagajni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishi munosabati bilan shahar yo'lovchi tashish transporti tashuvchilari ko'radigan zararlarni qoplanishi mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish belgilangan. Toshkent metropoliteni cheklangan tariflar bo'yicha yo'lovchilarga xizmatlar ko'rsatilishi munosabati bilan 2019–2021-yillarda ko'rgan zararlarni qoplanishi mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish dinamikasini tahlil qilganda, ushbu ko'rsatkich yildan yilga oshib borishini ko'rishimiz mumkin (2-jadval).

2 - j a d v a l: “Toshkent metropoliteni” DUK 2019–2021-yillarda ko'rgan zararlarni qoplanishi mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish dinamikasi⁶

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2019-yil	2020-yil	2021-yil
1	Fuqarolarning ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog'liq holda tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini subsidiyalar berish orqali qoplash	mlrd. so'm	5,15	2,69	4,59
2	Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo'lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishda olinmay qoladigan daromatlarni qoplash	mlrd. so'm	3,80	1,88	3,15
3	Cheklangan tariflar bo'yicha yo'lovchilar va bagajni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishi munosabati bilan shahar yo'lovchi tashish transporti tashuvchilari ko'radigan zararlarni qoplanishi	mlrd. so'm	9,0	27,16	53,52

Mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan “Toshkent metropoliteni” DUK 2019–2021-yillarda ko'rgan zararlarni qoplanishini moliyalashtirish dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, cheklangan tarifda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish natijasida yildan yilga yo'lovchilarning ko'payishi, byudjet tomonidan berilayotgan subsidiyalarning miqdori ortishiga olib kelgan.

Xususan, metropolitenning 2019-yilda korxona ko'rgan zararni qoplash uchun mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan 9,0 mlrd. so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, 2021-yilda korxona ko'rgan zararni qoplash uchun mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan olingan subsidiya miqdori 16,82 martaga oshib, 53,52 mlrd. so'mga teng bo'lgan (2-rasm).



2 - r a s m: Mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan “Toshkent metropoliteni” DUK moliyalashtirish⁷

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9 martdagi 128-sonli qarori.

⁶ “Toshkent metropoliteni” DUK faoliyatining 2019-2021-yillik statistika hisobot ma'lumotlari.

⁷ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.




Mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan "Toshkent metropoliteni" DUK 2019–2021-yillarda ajratilgan subsidiyalarni ajratilishi, korxona zaruriy ehtiyot qismlarni xarid qilish, bekatlarni joriy ta'mirlash, harakat xavfsizligini ta'minlash va elektrenergiyadan vujudga kelayotgan qarzdorliklarni, shuningdek, majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lash uchun juda muhim hisoblanadi. E'tirof etish joizki, korxona cheklangan tariflarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi, shahar jamoat transporti hisoblanib, vujudga kelayotgan moliyaviy zararlarni mahalliy byudjet parametrlari doirasida to'g'ri taqsimlanishi va o'z vaqtida to'lanishi, korxonaning kelgusi faoliyatini samarali tashkil etish uchun bugungi kunning juda dolzarb masalasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmonlari asosida Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha 2019–2021-yillarda Respublika byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish dinamikasini tahlil qilganda, ushbu ko'rsatkich yildan yilga oshib borishini ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

3 - j a d v a l: Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha 2019–2021-yillarda Respublika byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish dinamikasi⁸

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2019-yil	2020-yil	2021-yil
1	Harakat tarkiblarini modernizatsiya qilish	mlrd. so'm	76,84		92,0
2	Yangi bekatlar qurish	mlrd. so'm	378,02	553,52	1337,4
3	Yangi harakat tarkiblarini xarid qilish	mln. yevro	34,0		63,7

Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha 2019–2021-yillarda Respublika byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, yildan yilga shahar infratuzilmasini rivojlantirish, yo'lovchilarga qulayliklar yaratish maqsadida yangi bekatlar tashkil etish, metropolitenida mavzud xizmat muddatini o'tagan harakat tarkiblarini modernizatsiya qilish orqali ularning xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish shuningdek, kunning tig'iz vaqtlarida shahar aholisini qisqa vaqt oraliqida o'z manzillariga borishlarida oraliq intervallarni qisqartirish uchun yangi, energiyatejamkor harakat tarkiblarini xarid qilishi natijasida Respublika byudjet tomonidan berilayotgan subsidiyalarning miqdori ortishiga olib kelgan. Xususan, metropoliten harakat tarkiblarini yangilash va oraliq intervallarni qisqartirish maqsadida 2019-yilda Respublika byudjet mablag'lari hisobidan 34,0 mln. yevro mablag' ajratilgan bo'lsa, 2021-yilda yangi harakat tarkiblarini xarid qilish uchun Respublika byudjet mablag'lari hisobidan olingan subsidiya miqdori 2,0 martaga oshib, 63,7 mln. yevro teng bo'lgan (3-rasm).



3 - r a s m: Respublika byudjet mablag'lari hisobidan "Toshkent metropoliteni" DUK moliyalashtirish⁹

Respublika byudjet mablag'lari hisobidan "Toshkent metropoliteni" DUK 2019–2021-yillarda ajratilishi, metropoliten yo'nalishlarni va masofasini kengaytirish, harakat tarkiblarini modernizatsiya va yangilash, shahar aholisini qulay va xavfsiz transport vositasi bilan ta'minlash, shuningdek, shahar infratuzilmasini rivojlanishi uchun juda muhim hisoblanadi.

⁸ "Toshkent metropoliteni" DUK faoliyatining 2019–2021-yillardagi statistika hisobot ma'lumotlari.

⁹ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.



E'tirof etish joizki, korxona moliyaviy zararda ishlovchi jamoat transporti bo'lganligi, uning kelgusi faoliyatini samarali tashkil etish, harakat xavfsizligini ta'minlash, shahar infrastrukturasini rivojlantirish, metropoliten harakat tarkiblarini modernizatsiya va yangilarini xarid qilish, ma'naviy eskirga import ehtiyot qismlar va asbob-uskunalarini xarid qilinishida katta miqdorda mablag' talab qilinayotganligi va ushbu mablag'larni Respublika byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish bugungi kunning juda dolzarb masalasi hisoblanadi.

Toshkent metropolitenida yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada oshirish, yo'lovchilar tashishni boshqarishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish, metropoliten infratuzilmasini saqlash va undan foydalanish ishlarini samarali tashkil etish hamda Toshkent metropoliteni faoliyatini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent metropoliteni faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 16-oktyabrdagi PQ-5260-son qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorning 1-ilovasida "2021–2023-yillarda Toshkent metropolitenida yo'lovchi tashish va poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan birinchi navbatdagi" chora-tadbirlar rejasini amalga oshirish uchun "O'zbekiston temir yo'llari" AJdan 1 494 mln. doll., Davlat byudjetidan 13 959 mln. doll. va Xorijiy moliya institutlari mablag'lari hisobidan 96 400 mln. doll. jami 111 853 mln. doll. ajratilishi belgilangan (4-jadval).

4 - j a d v a l: 2021–2023-yillarda Toshkent metropolitenida yo'lovchi tashish va poezdlar harakati xavfsizligini ta'minlash uchun ajratilgan mablag'lar¹⁰

№	Moliyalashtiruvchilar	O'lchov birligi	2021-yil	2022-yil	2023-yil
1	Davlat byudjetidan	mln. doll.	6762	5240	1957
2	Xorijiy moliya institutlari	mln. doll.		96400	
3	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ	mln. doll.		1494	

Shuningdek, qarorning 2-ilovasida metropolitenida 2022-yilda amalga oshirish lozim bo'lgan chora-tadbirlar doirasida "YO'L XARITAS" tasdiqlangan bo'lib, unda metopoliten harakat tarkiblarini modernizatsiya qilish va yangi oraliq vagonlarini xarid qilish belgilangan. Ushbu topshiriq ijrosini taminlash maqsadida 2022-yilda Toshkent metropolitenida 16 metro vagonlarini (2 harakat tarkibini) modernizatsiya qilish orqali xizmat muddatini 15 yilga uzaytirishga 44,7 mlrd. va 20 oraliq vagon ishlab chiqarishga 80,0 mlrd. so'm jami 124,7 mlrd. so'm ajratildi¹¹.

Xalq deputatlari Tokent shahar kengashining "2022-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini taqsimlash to'g'risida" 2021-yil 30-dekabrdagi VI-53-165-14-0-K/21-sonli qarori 3-ilovasi asosan, "Toshkent metropoliteni" DUKga Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo'lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishdan va bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo'yicha hisobga olinadigan yo'lovchilarni tashish natijasida olinmay qoladigan daromadlarni qoplash hamda Cheklangan tariflar bo'yicha yo'lovchilar tashish hisobidan yuzaga keladigan zararlarni qoplash uchun 57 266 014,0 ming so'm hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-oktyabrdagi PQ-5260-sonli qarori xarajatlarini qoplash uchun 59 316 800,0 ming so'm, jami 116 582 814 ming so'm mablag' ajratildi (5-jadval).

5 - j a d v a l: "Toshkent metropoliteni" DUK 2022-yilda mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirish¹²

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2022-yil
1	Fuqarolarning ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog'liq holda tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini subsidiyalar berish orqali qoplash	mlrd. so'm	11,5
2	Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo'lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishda olinmay qoladigan daromadlarni qoplash	mlrd. so'm	4,2
3	Cheklangan tariflar bo'yicha yo'lovchilar va bagajni tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishi munosabati bilan shahar yo'lovchi tashish transporti tashuvchilari ko'radigan zararlarni qoplanishi	mlrd. so'm	121,56

¹⁰ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan tuzilgan.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi PQ-98-sonli qarori.

¹² "Toshkent metropoliteni" DUK faoliyatining 2022-yilgi statistika hisobot ma'lumoti.



XULOSA

Toshkent metropoliteni mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini xulosa qilib aytadigan bo'lsak, korxona pensionerlarga bepul xizmat ko'rsatish natijasida olinmay qolingani daromadlar, imtiyozli oylik yo'l chiptalaridan olinmay qolingani daromadlar hamda cheklangan tariflarda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish natijasida olinmay qolingani daromadlarni qoplash maqsadida respublika va mahalliy davlat byudjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Toshkent metropoliten asosiy faoliyatdan tushadigan hamda boshqa faoliyatdan tushadigan daromadlarni korxona xodimlarining ish haqlari va majburiy to'lovlarni to'lashga sarflanishi ma'lum bo'ldi. Toshkent metropolitenida mahalliyashtirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida cheklangan tarif turini diferentsial tarif turiga o'zgartirish, barcha metro bekatlarida QR-bilet o'qiydigan bankamatlar o'rnatish orqali tizimni raqamlashtirish orqali kassa operatorlarini qisqartirish hamda metropoliten boshqa faoliyatdan tushadigan daromad turlarini kengaytirish takliflarini kiritdik.

Bizning fikrimizcha, bunday tariflar miqdoriy va sifat o'zgarishini hisobga oladigan temir yo'l transportida mahalliyashtirish mexanizmini samarali amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni shakllantirishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqishga imkon beradi va kelgusida ilmiy tadqiqotlar uchun qo'llanishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirishning mohiyatini tushunish borasida o'rganishlar o'sib borayotganligi korxona iqtisodiy taraqqiyotning barqaror sur'atlarda o'sishga erishish uchun zarur bo'lganligini ta'kidlash lozim.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktyabrdagi 643-son "Umumiy foydalaniladigan transportda yo'lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2012-yil 17-sentyabrdagi 273-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi PQ-643-sonli qarori. // www.lex.uz.
2. Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashining "2022-yil uchun Toshkent shahar mahalliy byudjetini taqsimlash to'g'risida" 2021-yil 30-dekabrdagi VI-53-165-14-O-K/21-sonli qarori. // www.lex.uz.
3. I. X. Boboyev. Mahalliyashtirish asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish strategiyasini shakllantirish. 08.00.03 – Industrial tarmoq iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha tayyorlangan fan nomzodligi dissertatsiyasi /ANRUIE.- T., 2008 y.
4. Г. У. Мадаминаова. Развитие промышленного производства на основе экспортоориентированной маркетинговой стратегии. 08.00.13 – менеджмент и маркетинг диссертация на кандидат экономического наука./ ТГЭУ. – Т., 2008.
5. А. М. Вазьянский, Локализация производства как проблема современного менеджмента: на примере автомобильной промышленности тема диссертации и автореферата по ВАК 08.00.05;
6. В. Кондратьев Политика локализации производства как инструмент модернизации, 2017.
7. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari / <http://www.stat.uz>.
8. Temir yo'l transporti kengashi. MDH davlatlari temir yo'l transporti bo'yicha Kengash rasmiy sayti, / <http://www.sovetgt.org>.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.